

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSI VA JADID
MATBUOTINI YORITISHNING DOLZARB MASALALARI”**

Akbarova Shaxzoda Alisher qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

XX asr dunyoga juda ko‘plab siyosiy arboblardan, islohotchilardan, shuning barobarida, mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo‘lish va o‘z mamlakatining mustaqilligi uchun kurashchilarni yetkazib berdiki, endilikda ularning nomlari insoniyat tarixidan abadiy o‘rin olgan. Ozodlik va istiqloq uchun buyuk kurashchilarning mana shunday buyuk siymolardan biri — Mahmudxo‘-ja Behbudiy XIX va XX asrlar chorrahasida, Yevropa hamda Osiyo uzra o‘zgarishlar shamoli alohida kuch bilan esa boshlagan davrda yashadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, mustamlakachilik, publitsistik asarlar, siyosiy arboblardan, islohotchilardan, ma‘rifatchilardan, “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” „Turkiston muxtoriyati Jadidchilik XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkiston ziyolilarining xalq orasida ozodlik, demokratiya, madaniy -ma‘rifiy g‘oyalarni keng targ‘ibot qilish va uni amalga oshirishga qaratilgan milliy taraqqiyparvarlik harakatidir. Ma‘lumki, «Jadidlarimiz siyosiy ishlar - haq-huquq, milliy davlat, hokimiyat masalalari bilan muntazam shug‘ullandilar. Ayni paytda maktab - maorif isloh qilina boshlandi. Milliy matbuot yo‘lga qo‘yildi. Teatr paydo bo‘ldi. Yangi adabiyot shakllandi, bir so‘z bilan aytganda, yangi tafakkur maydonga keldi. Bu millatning o‘zligini anglash va mustaqillik mafkurasi edi. Bu hol, shubhasiz, millatning keyingi 3-4 asrlik tarixiy taraqqiyotida misli ko‘rilmagan hol edi. Uning hayotida uzoq turg‘unlikdan keyin yangi bosqich boshlanishiga dalolat edi». Shu ma‘noda aytishimiz mumkinki, jadidlar matbuoti sho‘ro davridagi bir yoqlama mafkuraviy qolipdagi matbuot emas, bu millatni kurashga, ma‘rifatga otlantirgan matbuot edi. Jadidlar matbuoti to‘g‘risidagi haqiqatning tiklanishi bevosita milliy istiqloqning ro‘yobga chiqishi bilan uzviy bog‘liq. Jadidlik harakatini chuqur o‘rganish, o‘sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ‘ib qilish davlatimizning doimiy diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida bu masalaga alohida to‘xtalib o‘tdi: “Umuman, biz jadidlik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu



ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi". Jadidlik harakati va uning mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. Prezidentimiz 2020-yil 30-sentyabrda imzolagan "Ma'rifatparvar jadidlik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi Farmonda jadidlar faoliyati yana bir bor e'tirof etildi. XX asrning boshida o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish va yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. Samarqandda ham jadidlik harakati keng yoyilib, ularning bir qator yetuk namoyandalari yetishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko'zga ko'ringan vakili, shubhasiz, Mahmudxo'ja Behbudiydir.

"Turkistondagi jadidlik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi bo'lishidan tashqari, o'z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchisi sifatida chuqur iz qoldirdi" Mahmudxo'ja Behbudiy mana shu Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, boshlab beruvchisi edi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida, ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785–1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894 yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rganadi. 18 yoshida qozixonada mirzolik qila boshlaydi. O'z ustida qunt bilan ishlab, shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi. Yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida Rossiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiyning xizmati katta bo'lgan. U 1892-yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, "usuli savtiya"ni joriy etish taklifi bilan general gubernator N. O. Rozenbaxga murojaat etadi. Javob olmagach, 1893-yilda o'zi Toshkentga keldi. Samarqand, Buxoroda bo'ldi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarni ochishga muvaffaq bo'ldi. Behbudiy o'z xotiralarida ustozini bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi.



Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidaga Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o‘zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist. U tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg‘unlik, o‘zaro janjal, mahalliy urug‘chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o‘lkani zabt etgan Rossiya zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma‘rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi. Turkistonda “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni shular tashkil qilib, shular birinchi bo‘lib zamonaviy maktab g‘oyasini ilgari surdilar. Ular o‘z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloqlga tayyorladilar, she‘r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindilar. Rossiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining shavkatini himoya qildilar, inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog‘ini baland ko‘tardilar.

Behbudiy 1914-yilda „Samarqand“ gazetasini chiqaradi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida, haftada 2-marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. Shu yil 20-avgustdan u „Oyna“ jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o‘zbekcha bo‘lib, she‘r, maqola (forscha), e‘lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yo‘lga qo‘yadi. Fitratning „Bayonoti sayyohi hindi“sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi. Behbudiy 1914-yil 29-mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo‘ladi, 8-iyunda Istanbulga keladi. Undan Adarnaga o‘tib, yana Istanbulga qaytadi va 20-iyunda Ismoilbek Gasprinskiy bilan uchrashadi. So‘ng Quddus, Bayrut, Yofa, Halil ar-Rahmon, PortSaid, Shom shaharlarida bo‘ladi. Sayohat xotiralari „Oyna“ jurnalida bosilib turadi. Bu „xotiralar“ har jihatdan muhim bo‘lib, an‘naviy tarix-memuar janrining 20-asr boshidagi o‘ziga xos namunasi edi. Muallif unda yo‘l taassurotlariga, kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o‘rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma‘lumotlar to‘playdi.



Turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Oyna“ jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq „Ikki emas, to‘rt til lozim“, degan maqola bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi „Har millat o‘z tili ila faxr etar“, o‘zaro munosabatlari haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga katta e’tibor berdi. Uning xususiyatlarini belgilashga urindi. Boshqa adabiy janrlar bilan teng huquqligi masalasini ko‘tardi. Millat sha’nini oyoqosti qiluvchi fikr qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o‘z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi. Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, „xayoliy“, „bu toifaga qo‘shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik“ deb yozgan edi. O‘zlikni anglashni muhim biladi. „Qabilasini ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni „qulq“ „marquq“ derlar“, deb yozadi. 1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo‘layotgan bir paytda o‘lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg‘in qo‘shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili „Rusiya musulmonlari ittifoqi“ning Nijniy Novgorodda o‘tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Toshkentda bo‘lib o‘tgan (1917) Turkiston musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so‘zladi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. Behbudiy shu qurultoyda o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylandi. 1917-yil 26-noyabrda Behbudiyda Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o‘tar kechasi „Turkiston muxtoriyati“ e‘lon qilindi. Uning g‘oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. Muxtoriyat sho‘rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko‘p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho‘rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi. 1919-yilning erta bahorida mamlakatdan chiqib ketayotganida Shahrisabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg‘oqchilari ko‘magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo‘lga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqea Samarqandda bir yildan keyin ma‘lum bo‘ladi. Fitrat, Cho‘lpon,



Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiyga atab marsiyalar yozganlar. Qarshi shahri 1926–1937-yillar davomida Behbudiy nomi bilan atalgan. Behbudiy jadidlar yetakchisi, mintaqada taraqqiyparvarlik harakatining a’zosi sifatida Samarqand shahrida turli yig’in, kecha va mashvaratlarni tashkil qildi. Bu kabi yig’ilishlarga turli shaharlardagi taraqqiyparvar kishilar taklif etildi. Buxorolik mashhur ma’rifatparvar Sadriddin Ayniy Mahmudxo’ja Behbudiy haqida bunday eslaydi: “1908-yilda dars sheriklarimizdan bo’lg’on Mirzo Abdulvohid bilan Buxorodan Samarqandg’a kelgan edik. Bu sayohatimizda mulla Abdulqodir Shakuriy, mulla Ismatullo Rahmatullozoda va bir qancha Samarqand ma’rifatparvarlari oqshom majlisi uchun bizni bir yerga chaqirg’on edi”. Turkistonda milliy matbuot rivojiga ulkan hissa qo’shgan. Uning tashabbusi bilan o’zi va boshqa taraqqiyparvarlarning ma’rifatparvarlik g’oyalarini keng targ’ib qilish maqsadida gazeta va jurnallar faoliyat ko’rsata boshladi. Behbudiyning sa’y-harakatlari va muharrirligida 1913-yildan “Samarqand” gazetasi chiqa boshlagan. Unda o’sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga e’tibor kuchli edi. Gazetaning 1913-yil 30-iyuldagi sonida turkistonlik yoshlarning og’ir ijtimoiy ahvoli, bolalarni maktabda o’qitishning ahamiyati haqida to’xtalib, bunday deyilgan: “Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosig’a tobe ekan, bizni ulamo bil’aks avomg’a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o’ttuz sana so’ngra yana yomonroq bo’lur, musulmonlik ilm va adab ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”. Bundan tashqari, Behbudiyning bevosita ishtiroki va tashabbusi bilan 1917-yil 16-apreldan boshlab “Hurriyat”, 1918-yildan 1922-yilgacha “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi nashr etilgan va ularda mustaqillik, insonlarni ilm olishga, zamonaviy fikrlashga da’vat etuvchi maqolalar chop qilingan. Behbudiyning noshirlik faoliyatida “Oyina” jurnali alohida ahamiyatga ega. 1913-yilning 20-avgustidan chiqa boshlagan bu jurnalda milliy birdamlik, turkiy xalqlarning hamjihatligi kabi masalalar ko’tarilgan. Millat va uning haq-huquqlari, tarixi, til va adabiyoti masalalari, dunyodagi ahvolga doir qiziqarli maqolalar berib borilgan. Behbudiyning millat taraqqiyotida xorijiy tillarni o’rganishning ahamiyati haqidagi fikrlari diqqatga sazovor. U xorijiy tillarni o’rganish zamonning zarurati ekanini ta’kidlab, uni diniy tomondan ham asoslashga harakat qildi: “Yana bir til va xat borki, butun olam bir-birila aning ila so’ylaydur. Ul faranse tili xatidur. G’ayridinning ilm va xatini o’rganmoq shariatcha durustdur. Hadisi sharifdan ma’lum bo’ladurki, janob Payg’ambar (S.A.V.) o’z sahobalaridan Zayd bin Sobitga yahudiy xatini o’qub-o’rganmoqqa buyurgan



ekan. Va ul janob amri hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib, hazrat Payg'ambar (S.A.V.)g'a yahudiylardan keladurg'on xatlarni o'qub berar ekan.

U dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko'rgan. An'anaviy tahsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Behbudiy safar chog'ida ko'p ajobiy xodisalarga guvoh bo'ldi. Xususan safarda u yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktab-lar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug'rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi. Mahmudxo'ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi.

Behbudiy nazarida ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiy ni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko'rsatadiki, ish oson ko'chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: «Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnasiga chiqib, «masxarabozlik» qilsa», deb yozgan edi.

«Padarkush» – o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda



sodda va joʻn. U jaholat va nodonlik, oʻqimagan bolaning buzuq yoʻllarga kirib, oʻz otasini oʻldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini oʻylamagan boyning Toshmurod ismli oʻgʻli bor. Oʻgʻli oʻqimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, oʻgʻlini oʻqitmaydi, oqibatda u koʻcha bezorilariga qoʻshiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uygʻonib, ularni sezib qoladi. Lekin boyni oʻldirib, pulini olib ketadilar.

Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsachi?!.. “Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qoʻyildi. “Xalq nihoyat koʻp kelib, bilet yetmagani va joyni yoʻqligi uchun uch-toʻrt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot. Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida Avloniyning “Turon” truppassi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da oʻz faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvar qori teatrning jamiyat hayotidagi roli va oʻrni haqida nutq soʻzlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning oʻzi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun” deb yozadi.

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shugʻullanadi. Aprel oyidan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, soʻng toʻrt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi toʻxtagan. Oʻsha yilning 20 avgus-tidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal asosan oʻzbek tilida boʻlib, unda ixcham forsiy sheʼrlar, maqolalar, ruscha eʼlonlar ham berib borilardi... “Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan eʼtiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afgʻoniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi”.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizgʻin shugʻullandi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan oʻz xususiy nashriyotini ochdi. Fit-ratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yoʻlga qoʻydi. Oʻsha davr vaqtli matbuotida “Behbudiy kutubxonasi” haqidagi xabarlar chiqa boshlangan edi.

M.Behbudiy milliy til masalasiga katta eʼtibor qaratdi. Birgina uning “Oyna” jurnali maʼrifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida boʻlgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq, “Ikki emas, toʻrt til lozim” degan maqola bilan chiqqan edi.



Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri «Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur», deb nomlangan. «Tushundigim zamon ko‘nglum yonar, yig‘lamoq istarman, ko‘z yoshlarim kelmaydur», deb boshlanar edi maqola. Adib taraqqiyot va turmushda Ovro‘podan yer va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan so‘z ochgan edi. (1915-y. 7-son). “S.A.” imzoli kishining “Har millat o‘z tili ila faxr etar” (1914-y. 35-son) maqolasida boshqa tillarni o‘rganish qatorida har bir millat o‘z tilining muhofazasi bilan shug‘ullanishi shart, degan fikr juda ko‘p dalillar bilan isbot qilib beriladi. “Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, biroz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta, yo‘qolur”, deb yozadi muallif va «Bas, bizg‘a tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur», deb xulosa chiqaradi. Jurnalning 1915-yil 11-12-sonlarida bosilgan Behbudiyning “Til masalasi” maqolasida tillarning o‘zaro munosabati haqidagi bahs davom etadi. Ulug‘ ma‘rifatchi tillarning bir-biridan o‘rinli lug‘at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo‘lgan inglizchaning ham “o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligini” dalil qilib ko‘rsatadi va masalaning boshqa jihatiga – yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi.

Mustamlakachilar “50 yil ilm-ma‘rifatdan chetda saqlab kelgan”lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo‘ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig‘vo tinimsiz davom etardi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir fevral o‘zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e‘lon qiladigan bo‘ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig‘i janob Miller tayyorlaydi. Har xil ang-lashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general-gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig‘iga ko‘ra Samarqand ijroiya qo‘mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay‘at yubordi. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e‘loni oldindan mo‘ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o‘rtasida o‘tib bo‘lmas choh paydo bo‘ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo‘yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o‘lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan «o‘z ixtiyorlari ilan» borgan deputatlarga to‘nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezdda minbarga chiqib, bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda «Buxoro voqealari va daf‘i tuhmat» (“Hurriyat” gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozgan edi.



Behbudiy Toshkentda Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar olib boradi lekin u ham natija bermaydi. Oqibatda Behbudiy 1919-yilning bahori 25-martda Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxt bo‘lgan Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo‘ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O‘nlab marsiyalar yoziladi. “Behbudiyning sag‘anasini izladim” deb atalar edi Fitratning bir she’ri. Ayniyda bir emas, uch she’r bor.

Sani mundin buyon Turon,

ko‘rolurmu, ko‘rolmasmu?

Saning mislingni Turkiston

topolurmu topolmasmu? – deb boshlanardi uning she’rlaridan birida.

1926-37 yillarda 11 yil davomida Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining adabiy lashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo‘yilgan o‘sha 1926-yildayoq u mansub bo‘lgan jadidchilikni aksil-inqilobiy, aksilsho‘roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi bosh-lab yuborilgan edi.

2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145-yilligi keng nishonlanadi. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga molik. XX asr o‘zbek adabiyoti va san’atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma’rifati, ozodligi, hurligi yo‘lida mardonavor kurashgan bu ulug‘ allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o‘rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo‘lib qoldi. Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi stipendiyani tashkil etilishi ham yurtimiz yoshlari qalbida yuksak bilim va ma’rifatlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari jo‘sh urib turadi, faxr va iftixor tuyadi.

Behbudiy Turkistonda islom dinining o‘rni va mavqei yuqoriligi, diniy ulamolarning xalq orasidagi obro‘sini inobatga olgan holda, o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda diniy va dunyoviy qarashlardagi muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bu haqda tarix fanlari doktori, professor Rajabovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Behbudiy ham din va millatni ittifoq etishga, islohot o‘tkazishga, ziyoli va taraqqiyparvarlarni, boy va ulamoni birlashtirishga da’vat etdi. U taraqqiyparvarlar va ulamolarning xalq orasida obro‘si unchalik katta emasligi, shu bois qadimiy ulamolar bilan hamkorliksiz ish olib borilsa muvaffaqiyatga erishish qiyinligi to‘g‘risida kuyunib so‘zlar edi”.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov Behbudiy Karvonboshi. „Yoshlik“ jurnali, 1990-yil, 1-son.
2. Aliev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. T., 1994.
3. Ahmedov S. O‘limdan qo‘rqmagan mutafakkir. „Sovet O‘zbekistoni san’ati“, 1989-yil, 2-son.
4. Rizaev Sh. „Padarkush.

